

## FIZIKA FANININI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM

**Egamberdiyeva Soxiba Otabekovna**

fizika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada fizika ta‘limi samaradorligini ta‘minlashda turli pedagogic texnologiyalardan foydalanish, darslarni DTS talablariga muvofiq tashkil etishning maqbul yo‘llari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** individuallik, shaxs, mustaqil fikrlash, sub‘ekt, bilish strategiyasi.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimi tubdan isloh qilinayotgan hozirgi davrda maktablarda ta‘lim berayotgan o‘qituvchilar har xil darajadagi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. Shu bois barcha fanlardagi singari fizika fanini o‘qitishda ham o‘quvchining individual xususiyatlari, imkoniyatlarini hisobga olish, fizika ta‘limi samaradorligini ta‘minlashda turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darslarni DTS talablariga muvofiq tashkil etishning maqbul yo‘llaridan biri hisoblanadi. Ta‘limni texnologiyalashtirish asosida ta‘lim samaradorligini oshirish belgilangan vaqt ichida va berilgan sharoitlarda loyihalangan o‘quv natijalariga erishishni kafolatlash uchun ta‘limni to‘liq boshqarish g‘oyasi yotadi. Ta‘limga texnologik yondashish mohiyati ta‘lim jarayonini muayyan pedagogik tamoyillar bo‘yicha o‘ziga xos bo‘lak va elementlarga ajratish hamda uni muayyan izchillik va ketma-ketlik asosida ana shu tarkibiy qismlarni shakllantirishdan iborat. Hozirgi kunda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda o‘rganilmoqda, o‘zlashtirilmoqda va o‘ziga xos darajada qo‘llanilmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda o‘quvchi ta‘limning milliy modeli mohiyatiga ko‘ra pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ta‘limning milliy modelini – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta‘lim, fan, ishlab

chiqarishdan iborat 5 ta tarkibiy qismida 'shaxs' asosiy tarkibiy qism – birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan o'qitish o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi fan, madaniyat va ma'rifat masalalari bo'yicha BMT tarkibidagi nufuzli bo'lim YUNESKO tomonidan ham tan olingan va shunday ta'rif berilgan; ta'lim texnologiyasi ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir.

Maktablarda o'qitish jarayoni kuzatilganda quyidagi xulosalar sezilib qolayapti:

- mustaqil ta'lim uslubiyati hali talab darajada ishlab chiqilmagan;
- o'quvchilarda turli manbalar bilan ishlash ko'nikmalari yetarli shakllanmagan;
- o'quvchilarning berilgan mavzuda amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishlari qiyin kechayapti;
- o'z fikrlarini og'zaki va yozma ifoda etishda qiynalishadi.

Ommaviy axborot vositalari, internet orqali kelayotgan turli mazmundagi katta hajmli axborotlar ham o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini chetlab o'tib ularning kitob varaqlash, ma'lumotnomalar va entsiklopediyalar bilan ishlashlariga ma'lum ma'noda xalaqit bermoqda. Hozirgi kun talablariga ko'ra o'sib kelayotgan avlodni o'qitish ularning bilimi, talabi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Aynan shuning uchun ham shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarini, jumladan modeli o'qitish texnologiyasini qo'llashga katta ahamiyat berilmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'qitishda bir necha ming o'qituvchilar, boshlang'ich, o'rta maktab, kollejlari (Angliya, AQSH), so'ngra Olmoniyada ham o'quvchilarning o'zini baholashi yaxshilangan, intellektual ko'rsatkich oshgan, ularning bilish qobiliyati rivojlangan, bu esa ularning sog'ligini yaxshilanishiga, o'zlashtirishning oshirilishiga ya'ni darsga qatnashishi yaxshilanishiga olib kelgan. Pedagogika, jumladan didaktika va psixologiya bilan uzviy bog'langandir. Bu bog'lanish nafaqat tadqiqot ob'ekti

(inson, o‘quvchi)ning umumiyliigi bilan balki, umum nazariy holatlarda, insonning tabiatini tushunishda, ko‘rinishda muhimdir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ham xuddi shuningdek boshqa pedagogik yondashishlar yecholmagan masalalarni o‘qitishga qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan pedagoglar tomonidan qabul qilish uchun bu jarayonni texnologik tasvirlash kerak bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning texnologiyasida o‘qitish jarayonining prinsiplarini ishlab chiqish, jumladan testga, metodik materiallar, tavsiyalar, o‘quvchi shaxsini rivojlanishni nazorat qilish shakli, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni ta’minlashning butun didaktikasini ishlab chiqish joizdir.

Bunda quyidagilarni e’tiborga olish lozim: o‘quv materialini o‘quvchining sub’ektiv tajribasining mazmunini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi, darslar (o‘qituvchi) bilimni bayon qilish, uning hajmini oshirishga qaratilgan bo‘lmasada, balki strukturalash, integrallash, predmet mazmunini umumlashtirishga, lekin doimiy ravishda o‘quvchi sub’ektiv tajribasini o‘zgartirib boradi; o‘qitish vaqtida o‘quvchining sub’ektiv tajribasiga topshiriqning ilmiy mazmuni bayoni moslashtiriladi; o‘quvchining ta’lim faoliyatini o‘zicha baholashi, o‘quvchi mustaqil o‘qish, mustaqil rivojlanish, mustaqil fikrlashga erishishini ta’minlaydi; o‘quvchiga topshiriqning mazmuni, formasini aniqlashga imkoniyat beradi; faqat natijani nazorat qilishni ta’minlashdan tashqari, o‘qish jarayonini o‘quvchi o‘quv materialini qanday o‘zlashtirayotganini ham nazorat qiladi.

Ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lganda uning biologik, ijtimoiy ruhiy komilliklarini o‘z ichiga olishi eng avvalo har bir ta’lim oluvchiga individ-shaxs tabiatning bir bo‘lagi sifatida qaralmog‘i lozimligi uqtiriladi

#### **Adabiyotlar:**

1. Yusupov A, Saidov T. —Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashl(fizika fani misolida).Toshkent-Abdulla Avloniy-2017.47b.
2. Azamov A., Yusupov A. O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish.-T., 2016.